

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

DOPING NAZORATI
BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent – 2025

Doping nazorati bo'yicha uslubiy qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – 24 bet.

Mazkur qo'llanma dopingni aniqlash usullari, doping test topshirishda sportchining huquqlari, rekordchilarni testdan o'tkazish, doping nazoratini amalga oshirishda sportchidan namuna olish tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma sport sohasidagi davlat xizmatchilari, sport tashkilotlari xodimlari, sportchilar hamda keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

DOPING NAZORATI BO'YICHA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR	3
KIRISH	4
DOPING NIMA?.....	5
DOPINGNI ANIQLASH USULLARI, NAZORAT SUBYEKTLARI VA CHORALAR	6
DOPING TEST TOPSHIRISHDA SPORTCHINING HUQUQLARI	7
DOPING NAZORATI PAYTIDAGI ALOHIDA QOIDALAR.....	9
JAHON, OSIYO, MILLIY YOKI MINTAQAVIY REKORDCHILARNI TESTDAN O'TKAZISH.....	11
ANTIDOPING QOIDALARI TA'SIRIGA TUSHADIGAN DORI-DARMONLARNI QABUL QILISH.....	14
DOPING NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDA SPORTCHIDAN NAMUNA OLISH	18
ILOVALAR	22

Doping nazorati bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar

"Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun	
"Sportda dopingga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiyani (Parij, 2005-yil 19-oktyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonun	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi faoliyatini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-149-son qarori	

KIRISH

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida respublikada sport bilan professional va doimiy shug‘ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish, milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish maqsadlari nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning Olimpiya va paralimpiya o‘yinlarida **kuchli 15 ta mamlakat qatoridan** o‘rin egallashiga erishish ko‘zlanmoqda.

O‘z navbatida, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid **davlat dasturi doirasida** 2026-yilda Aichi prefekturasining Nagoya shahrida (Yaponiya) bo‘lib o‘tadigan **XX yozgi Osiyo** va **V Paraosiyo o‘yinlariga** hamda 2028-yilda **Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan yozgi Olimpiya** va **Paralimpiya o‘yinlariga** O‘zbekiston sportchilari tayyorgarligini tashkil etish maqsadi qo‘yilganligi bejiz emas.

Bu maqsadlarga erishishda sport tashkilotlari xodimlari, sportchilar va boshqa aloqador shaxslarning dopingga qarshi kurash borasidagi malakasini oshirish, shu jumladan, doping nazoratidan o‘tish tartibini sodda va oson tarzda tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan **Doping nazorati bo‘yicha uslubiy qo‘llanma** doping tushunchasi, dopingni aniqlash usullari, nazorat subyektlari, doping test topshirishda sportchining huquqlari, jahon, Osiyo, milliy yoki mintaqaviy rekordchilarni testdan o‘tkazish, doping nazoratini amalga oshirishda sportchidan namuna olish kabi masalalarni qamrab oladi.

DOPING NIMA?



Doping inglizcha **“dope”** soʻzidan olingan boʻlib, “qoʻzgʻatuvchi gilyoh” degan maʼnoni bildiradi.

Doping – musobaqa muvaffaqiyatlarini va sport natijalarini oshirish maqsadida organizmga yod moddalarni odatdan yuqori miqdorda va turli yoʻl bilan sunʼiy va nohaq ravishda sportchi organizmga yuborilgan modda.



Inson organizmining faoliyatini sunʼiy qoʻzgʻatuvchi vositalar **doping modda** yoki **uslubi** hisoblanadi.

Dopingning inson organizmiga koʻrsatadigan taʼsirlari nimalarda aks etadi?


- ✔ tizimlar faoliyatini **tejamsiz sarflash**;
- ✔ turli **patologik holatlarni** vujudga keltirish;
- ✔ **yuklamalardan** keyingi taʼsirni kuchaytirish;
- ✔ tizimlar faoliyatini **sunʼiy qoʻzgʻatish**;
- ✔ jismoniy **oʻta zoʻriqish**.

Qisqa muddatga tizimlar faoliyati oshib, soʻng keskin susayishi va jismoniy ishchanlikning pasayishi **doping vositasi taʼsirining xususiyati** hisoblanadi.



Sportda qoʻllanilishi taʼqiqlangan modda va uslublar roʻyxatida 9 turdagi moddalar va 3 uslubdagi guruhlar mavjud.

DOPINGNI ANIQLASH USULLARI, NAZORAT SUBYEKTLARI VA CHORALAR



Inson tanasida mavjud bo'lgan taqiqlangan moddalar ya'ni dopingni aniqlashda asosan **qonning kimyoviy tahlili**dan foydalaniladi.

Doping nazorati musobaqa davrida asosan kimlarda o'tkaziladi?

📍 Doping-nazorati musobaqa jarayonida va musobaqadan tashqari davrda asosan **I, II, III o'rin** sovrindorlarida amalga oshiriladi.

Doping aniqlangan taqdirda qanday choralar qo'llaniladi?

Doping birinchi marta aniqlangan taqdirda sportchiga nisbatan **4 yilgacha** muddatga musobaqalardan chetlatish (diskvalifikatsiya) chorasi qo'llaniladi.

Bu muhim! Doping ta'sirida sportchi organizmining **yurak-qon tomir, asab** va **endokrin tizimi** ko'proq zararlanadi.

Taqiqlangan modda yoki taqiqlangan usuldan foydalanishi yoki foydalanishga urinishida qanday holatlar inobatga olinmaydi?

✔ Taqiqlangan **moddalarni istemol qilmaslik** va **taqiqlangan usuldan foydalanmaslik** sportchilarning majburiyati hisoblanadi. Shunga ko'ra, taqiqlangan modda yoki taqiqlangan usuldan foydalanish uchun antidoping qoidabuzarliklarini aniqlashda, sportchining **haqiqiy niyati, aybdorligi, beparvoligi, yoki qasddan foydalangani** inobatga olinmaydi.

DOPING TEST TOPSHIRISHDA SPORTCHINING HUQUQLARI

Doping test topshirishda sportchining huquqlari



sportchining **vakili qatnashishi** va zaruriyat bo'lganda tarjimon qatnashishi;



doping-nazorat uchun namuna olish tartibiga taalluqli **qo'shimcha axborot olish**;



doping-nazorat ofitseri roziligi bilan uzrli sababga ko'ra doping-nazorat joyiga **yetib kelish vaqtini kechiktirishni so'rash**;

(Bunda doimo doping nazorat xizmati xodimining kuzatuvi ostida bo'ladi)



imkoniyatlari cheklangan sportchilar uchun **namuna olish tartibini o'zgartirish**.


Doping test topshirishda sportchining majburiyatlari



doping-nazorat jarayonida **doping ofitserining kuzatuv ostida** bo'lish




sportchi **shaxsini tasdiqlovchi tegishli hujjatni** taqdim qilishi



doping sinama topshirish uchun **doping-nazorat joyiga** darhol yetib kelish

Doping nazorati uchun namuna topshirmaslik yoki namuna topshirishni rad etish



Sportchi tomonidan doping nazorati uchun namuna topshirmaslik yoki namuna topshirishni rad etish **"namuna topshirishdan qochish"**ga aloqador **antidoping qoidabuzarligi** hisoblanadi.

Bu muhim! "Namuna topshirish jarayonida qatnashmaslik" sportchining **qasddan** va (yoki) **beparvolik harakatlari bilan** bog'liq qoidabuzarlikka asoslanishi mumkin.

DOPING NAZORATI PAYTIDAGI ALOHIDA QOIDALAR

Tarjimondan foydalanish

✔ Zaruratga ko'ra, UzNADA Antidoping dasturi uchun O'zbekiston va boshqa davlatlardan **ko'p tillarda muloqot qila oladigan tajribali doping nazorati xodimlari** (DCO) jalb qilinadi.

✔ Sportchilar **o'z tarjimonlarini** ham taklif qilishlari mumkin. Biroq:

⚠ har bir sportchiga **faqat bitta tarjimon** doping nazorati punktlariga kirish huquqiga ega bo'ladi;

⚠ tarjimonga **butun doping nazorati jarayonida** ishtirok etishga ruxsat beriladi, *sportchining tahlil namunasini taqdim etishiga guvoh bo'lish bundan mustasno.*

Doping nazoratidan o'tadigan sportchilarga oziq-ovqat va ichimliklar berish




Doping nazorati punktlarida sportchilarga **muhrlangan suv** va turli xil **alkogolsiz ichimliklar** taqdim etiladi.

Sportchilar mavjud **ichimliklardan birini tanlashlari** mumkin va iste'mol qilishdan oldin barcha ichimliklarning **asl muhrlari buzilmaganligiga** ishonch hosil qilishlari kerak.

⚠ Sportchilar ichimliklarni **qarovsiz qoldirmasliklari** kerak.

Bu muhim! Doping nazorati punktlarida ovqat berilmaydi.

✔ Sportchilar stansiyalarga oziq-ovqatlarini o'zlari olib kelishlari yoki xodimlari tomonidan ovqat yetkazib berilishi mumkin. Bunday hollarda, oziq-ovqat iste'moli bilan bog'liq **har qanday xavf uchun javobgarlik** sportchi zimmasiga yuklanadi.



Bu muhim! Texnologik xonada oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish taqiqlanadi.

Sportchi tomonidan o'zining joylashuvi haqida ma'lumot berib borish

Sportchilar **ADAMS tizimi orqali** o'zlarining joylashuv manzillari haqidagi ma'lumotlar taqdim etib borishi shart.

adams

 **wada**

JAHON, OSIYO, MILLIY YOKI MINTAQAVIY REKORDCHILARNI TESTDAN O'TKAZISH

Jahon yoki Osiyo rekordchilarini testdan o'tkazish

ITA (*International Testing Agency (ITA)* – *Dopingga qarshi xalqaro test agentligi*) jahon va (yoki) Osiyo **rekordlarini tasdiqlash uchun doping testlarini** o'tkazadi.



📌 Biroq, **Osiyo o'yinlari rekordlarini** sinab ko'rish shart emas.

Ma'lumot uchun. ITA Lozannada joylashgan bo'lib, notijorat fond sifatida faoliyat yuritadi. Uning missiyasi xalqaro federatsiyalar, yirik musobaqa tashkilotchilari va yordam so'ragan barcha boshqa dopingga qarshi tashkilotlar uchun sport yoki siyosiy hokimiyatdan mustaqil ravishda dopingga qarshi dasturlarni boshqarishdir.


✔ Jahon va (yoki) Osiyo rekordini yangilagan sportchiga ularning chiqishidan keyin xabar beriladi.



Agar yangi rekordini o'rnatgan sportchi o'z chiqishidan so'ng darhol xabardor qilinmasa, u doping-nazorat stansiyasiga tashrif buyurishi va antidoping xodimlariga sportchi **rekordni yangilagani haqida xabar** berishi kerak.

Milliy/mintaqaviy rekordchilarni testdan o'tkazish

Test uchun so'rovlar va to'lovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



✔ Milliy/mintaqaviy rekordlarni ratifikatsiya qilishni ta'minlash uchun Milliy olimpiya qo'mitasi testni talab qilishi mumkin.

📌 Bunday tekshirish bilan bog'liq **xarajatlar** so'rov yuborgan taraf tomondan qoplanadi.



Eslatma! Doping namunalari laboratoriyaga faqat to'lov kvitansiyasi qabul qilinganidan keyin yetkaziladi.

Doping nazorati kimlar tomonidan amalga oshiriladi?

Musobaqa va Musobaqadan tashqari olinadigan testlar	Testing Autothority Test organi	ITA, IF, UzNADA
	Samle Collection Autothority <i>Organ tomonidan namunalar yig'ish</i>	O'zbekiston Milliy antidoping agentligi UzNADA
	Samle Analyzing Laboratory <i>Namunalarni tahlil qilish laboratoriyasi</i>	Avstriya va Turkiya antidoping laboratoriyalari
	Result Management Autothority <i>Natijalarni boshqarish vakolati</i>	ITA, IF UzNADA

Izoh: ITA (International Testing Agency – Xalqaro sinov agentligi (doping nazoratida)).


ANTIDOPING QOIDALARI TA'SIRIGA TUSHADIGAN DORI-DARMONLARNI QABUL QILISH

Antidoping qoidalariga ta'siriga tushadigan dori-darmonlarni qabul qilish yoki tibbiy protseduralardan o'tish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Sportchilarda dori-darmonlarni qabul qilish yoki tibbiy protseduralardan o'tishni talab qiladigan **kasalliklar** yoki **holatlar** bo'lsa va uni davolashda qo'llashi kerak bo'lgan dori yoki usul **WADA Taqiqlangan dori yoki usullar ro'yxatiga** kiritilgan taqdirda **TUE** (*Therapeutic Use Exemption – tibbiy zarurat asosida ruxsatnoma*) **asosida** sportchiga antidoping qoidalarining buzilishi (ADRV) va amaldagi sanksiyalarni qo'llamasdan musobaqada ishtirok etishga ruxsat beriladi.

Eslab qoling! TUE arizalari bir guruh shifokorlar tomonidan baholanadi.

TUE uchun kimga va qachon murojaat qilishi kerak?



Doping nazorati uchun ruxsatnomaga (DCS Pass) ega bo'lgan quyidagi xodimlar Doping nazorati soatlarida doping nazorati stansiyasiga kirishlari mumkin:

Doping nazorati ostida bo'lgan **sportchilar**

Sport o'yinida bitta akkreditatsiya qilingan **sportchi vakili**

Doping-nazorat bo'yicha **navbatchi xodimlar** (doping nazorati punktlari rahbarlari, navbatchi koordinatorlar, sayt koordinatorlari, doping nazorati xodimlari, qon to'plash xodimlari, xizmatchilar)

Tarjimon, til xizmati volontyori

IF/AF **Antidoping rasmiysi** (Sportga xos protokolda IF/AF rasmiysi sifatida belgilangan)

ITA (International Testing Agency – Xalqaro Test Agentligi) va **musobaqa tashkilotchisining antidoping xodimlari**

Doping nazorati **boshqaruv markazi** (DCCC) **xodimlari**

Butunjahon antidoping agentligining (WADA-IO) **mustaqil kuzatuvchilari**

Ma'lumot uchun. **IF/AF** antidoping rasmiysi xalqaro yoki milliy sport federatsiyasining vakili, u antidoping qoidalariga amal qilinishini bevosita kuzatadi, koordinatsiya qiladi va huquqiy jihatdan javobgar hisoblanadi.

IF – International Federation — Xalqaro federatsiya;

AF – Anti-doping Functionary yoki Anti-doping Federation (ba'zi hollarda "Athletics Federation") — Antidoping rasmiysi yoki atletika federatsiyasi.

Doping nazorati bo'yicha sportchini xabardor qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?

♥ Xabar berish jarayoni **oldindan ogohlantirmasdan** amalga oshirilishi kerak.



Agar Xalqaro Testlar va Tekshiruvlar Standartida (ISTI) boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, sportchi namuna olish uchun tanlanganligi to'g'risida **xabardor qilingan birinchi shaxs** bo'lishi kerak.

✔ Xabar berish jarayoni oldindan ogohlantirmasdan va **Dopingga qarshi aqlli boshqaruv tizimi** (AIMS) orqali amalga oshirilishi kerak.

Xabar berish jarayoni

1

Vasiy yoki DCO (doping nazorati xodimi) sportchiga o'zini tanishtiradi va shaxsini tasdiqlovchi **akkreditatsiya kartasini ko'rsatadi**. Shu bilan birga, sportchi **doping nazorati uchun tanlangani** va undan **qaysi turdagi namuna (qona yoki boshqalar) olinishi** haqida ma'lumot beradi.

2

Sportchi ham o'z navbatida **shaxsini tasdiqlash uchun** o'zining **akkreditatsiya kartasini ko'rsatishi shart.**

3

Vasiy yoki DCO bu kartani vaqtincha o'zida saqlab turadi va sportchiga **DCS Pass**, ya'ni **doping-nazorat xonasiga (Doping Control Station) kirish uchun maxsus yo'llanmani** beradi.

4

Vasiy yoki DCO sportchiga uning **huquqlari va majburiyatlari** haqida tushuntirish beradi.

5

Shundan so'ng, sportchi **qog'ozda yoki elektron shaklda imzo qo'yadi**, ya'ni bu jarayonga roziligini tasdiqlaydi.

6

Agar **sportchining vakili (masalan, murabbiy yoki ota-onasi)** xabar berilgan paytda yonida bo'lmasa va **DCS Pass ola olmasa**, u keyinroq doping xonasiga (DCS) kelib, **kirish uchun o'zini tanishtirishi kerak bo'ladi.**

7

DCO (nazoratchi) **vakilning avval u yerda bo'lmaganini va hozir kelishini** sportchi bilan birga **tasdiqlab**, unga **DCSga kirish va sportchiga namuna topshirishda yordam berish uchun maxsus ruxsatnoma (DCS Pass)** beradi

📌 Agar sportchi namuna topshirishdan oldin **ovqat yemoqchi** yoki **suyuqlik ichmoqchi bo'lsa**, bunga o'zi javobgar bo'ladi. Bunday qarorni o'zi qabul qiladi va xavfni ham o'zi zimmasiga oladi.

📌 Tahlil uchun namuna juda suyultirib yuborilmasligi uchun sportchi **ortiqcha suyuqlik ichmaslikka harakat qilishi kerak.**


📌 Sportchi **doping nazorati haqida ogohlantirilgandan so'ng** imkon qadar tezroq birinchi tahlil namunasini topshirishi lozim.

DOPING NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDA SPORTCHIDAN NAMUNA Olish

Namuna olish bilan bog'liq barcha ma'lumotlar **elektron** yoki **qog'oz shaklida** yozib olinadi. Namuna qon va boshqa namunalar birgalikda bo'lishi mumkin.



Namuna olish tartibi



Namuna sportchining shaxsiy hayoti va xavfsizligi ta'minlangan joyda, sportchi bilan bir jinsdagi xodim nazorati ostida olinishi kerak.

📍 Agar sportchi **voyaga yetmagan bo'lsa** va o'zi talab qilmasa ham, namunani yig'ish vaqtida **uning vakili yonida bo'lishi tavsiya etiladi**.

✅ DCO (doping nazorati xodimi) sportchiga qaysi turdagi namuna olinishi va kerakli tahlil namunasi miqdori haqida ma'lumot beradi.

Avval qaysi namunani olish bo'yicha qat'iy tartib yo'q.

✅ Agar sportchi qon topshirishni kutayotgan paytda tahlil namunasini topshirishga tayyor bo'lsa, u bimalol ushbu namunani topshirishi mumkin.

Doping nazoratini amalga oshirishda sportchiga qaysi buyumlar berilishi kerak?

Sportchiga har doim tanlash uchun quyidagi jihozlar taqdim etilishi kerak va bu jihozlar mahkam yopiladigan hamda xavfsiz bo'lishi lozim:

namuna suyuqligini to'plash uchun **maxsus idishlar**

namuna solinadigan **butilkalar** (qadoqlash uchun)

agar namuna suyuqligi to'liq bo'lmasa, uni vaqtincha **muhrlash uchun uskunalar**

Doping nazoratini amalga oshirishda qon namunalarini topshirish

- ✔ Qon namunasi faqat **toza va xavfsiz muhitda** olinishi kerak.
- ✔ Qonni faqat **malakali tibbiy mutaxassis** olishi shart.
- ✔ Agar sportchidan biologik pasport uchun qon olinadigan bo'lsa va u **oxirgi 2 soat ichida** mashg'ulot qilgan bo'lsa, qon olishdan oldin kamida ikki soat kutish kerak bo'ladi.
- ✔ Sportchi tayyor bo'lganda, BCO (Blood Collection Officer) unga oyoqlarini polga qo'ygan holda, **10 daqiqa davomida** tinch holatda o'tirishni buyuradi.

Eslab qoling! Bu talab quritilgan qon dog'i – **DBS namunasi** uchun qo'llanilmaydi.



Sportchining natijasi qonni olish uchun ishlatilgan **uskunani** tanlash imkoniyati beriladi va u uskunaning ishonchli mahkamlanganiga va muhrlanganiga ishonch hosil qilishi kerak.

📌 Kerakli qon miqdori testni o'tkazayotgan tashkilot talab qilgan tahlil turiga bog'liq bo'ladi.

DBS namunasi (quritilgan qon dog'i) sportchining barmoq uchidan olinadi.

Namuna olish xodimlariga qo'yilgan talablar

Namuna olishda ishtirok etadigan xodimlar voyaga yetgan bo'lishi shart.



BCO (qon yig'uvchi xodimlar) O'zbekistonda qon olish bo'yicha yetarli malaka va amaliy tajribaga ega bo'lishi kerak.



Namuna yig'ish bilan shug'ullanuvchi barcha xodimlar o'z vazifalarini to'g'ri bajarishlari uchun oldindan maxsus o'qitilgan bo'lishlari kerak.

Eslab qoling! Doping nazorati **stansiyasi rahbarlari** (DCSM), **doping nazorati xodimlari** (DCO) va **kuzatuvchilar** namuna yig'ish sessiyasining natijalaridan **manfaatdor bo'lmashliklari** lozim.



Faqat UzNADA tomonidan tan olingan **akkreditatsiyaga ega bo'lgan xodimlarga** UzNADA nomidan namunalar yig'ishga ruxsat olishi mumkin.

 Ushbu akkreditatsiya faqat **sport o'yinlari davomida** amal qiladi.




ILOVALAR

1-илова

QISQARTMALAR RO'YXATI

ADAMS	Dopingga qarshi ma'muriyat va boshqaruv tizimi
TUE	Foydalanishdan terapevtik ozod qilish
MOQ	Milliy olimpiya qo'mitasi
IS	Xalqaro standart
ISTI	Test va tekshiruvlar uchun xalqaro standart
ISPPPI	Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish xalqaro standarti
NADO	Milliy antidoping tashkiloti
WADA	Jahon antidoping agentligi
IF	Xalqaro sport federatsiyasi
ADEL	Dopingga qarshi ta'lim va o'qitish
AIMS	Dopingga qarshi aqlli boshqaruv tizimi

Musobaqalar uchun doping nazorati xodimlarining asosiy tarkibiy tuzilmasi



[illegible]